O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI
AGROBITEXNOLOGIYALAR VA OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGI INSTITUT

Ro'yxatga olindi: № BD-60820100 2024 yil "10 04	**"TASDIQLAYMAN"** SamDU rektori: _____ R.I.Xalmuradov 2024 yil "__" _____

AHOLI YASHASH JOYLARINI KO'KALAMZORLASHTIRISH FAN DASTURI

Bilim sohasi:	800000 – Qishloq, o'rmon, baliq xo'jaligi va veterinariya
Ta'lim sohasi:	820000 – O'rmon xo'jaligi
Ta'lim yo'nalishi:	60820100 – O'rmonchilik va aholi yashash joylarini ko'kalamzorlashtirish

Fan/modul kodi	O'quv yili	Semestr	ECTS – Kreditlar
AYAJK1308 AYAJK1408 (bakalavriyat)	2025-2026	III IV	4 4
Fan/modulturi		**Ta'limtili**	**Haftadagidarssoatlari**
Majburiy		O'zbek	6

	Fan nomi	Auditoriyamashg'ulotlari (soat)	Mustaqilta'lim (soat)	Umumiy (soat)
1.	Aholi yashash joylarini ko'kalamzorlashtirish	54 54	66 66	120 120

	Fanning maqsad va vazifalari
FM1	**Fanni o'qitishdan maqsadi-** Bugungi kunda shaharsozlikdagi asosiy muammolardan biri - ko'kalamzorlashtirish isbotlarini ilmiy asosda tashkil etishdir, Aholi turar joylari-shaharlar, tumanlar, qishloq va posyolkalarni ko'kalamzorlashtirish - bu joylarni obodonlashtirishning asosiy vositalaridan bo'lib hisoblanadi.Ko'kalamzorlashtirish ko'lami - aholi yashash madaniyatidan dalolat beradi. Demografik tadqiqotlarning ko'rsatishicha, ko'kalam- zorlashgan hududlarga aholi kelib muqim joylashadi, hamda bu joylardan ko'chib ketishi kamdan-kam kuzatiladi. O'zbekiston kam o'rmonli mamlakat, shu sababdan yashil o'simliklar bu yerdagi tabiat ko'rinishini belgilaydi, Mamlakatimizda aholi yashash joylari, yo'llar, irrigasiya inshootlari, suv omborlarini ko'kalamzorlashtirish ishlari keng ko'lamda olib boriladi. Ihota va tog' meliorativ o'rmonchilik ulkan ahamiyatga ega, chunki suv, havo va tuproqni muhofazalashda o'rmonnmg o'rni beqiyosdir. **Fanning vazifasi -** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va hukumat qarorlarida aholi yashash xududlarini obodonlashtirishga alohida e'tibor qaratiladi. Hozirda ko'kalarazor-lashtirish ishlarini olib borishda bir qancha ilmiy tashkiJotiar, nihol o'stiriladigan ko'chatxonalar faoliyat ko'rsatmoqda. Ko'kalamzorlashtirishda qo'llaniladigan manzarali daraxtlar va butalar turlaiini kengaytirish, o'lkamiz sharoitlariga moslasha oladigan nav va shakllarini izlab topish, ilmiy darajada asoslangan texnologiya bo'yicha parvarishlashni tadbiq etish - bugungi kunning dolzarb masalalaridan sanaladi.

	Fan mazmuni
	II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari) **II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**
	Mashg'ulotlar shakli: ma'ruza (M) **5-semestr**
M1	**1-mavzu: Kirish.** Ko'kalamzorlashtirish ko'lami - aholi yashash madaniyatidan dalolat beradi. Demografik tadqiqotlarning ko'rsatishicha, ko'kalamzorlashgan hududlarga aholi kelib muqim joylashadi, hamda bu joylardan ko'chib ketishi kamdan-kam kuzatiladi.
M2	**2-mavzu: Ko'kalamzorlashtirishga ta'sir etuvchi omil -tabiiy sharoitlar.** O'zbekiston hududining shimoli-g'arbidan to janubi sharqigacha cho'zilganligi, undagi tabiiy sharoitlarning o'zgaruvchan bo'lishini ta'minlaydi.
M3	**3- mavzu: Daraxtzorlarning mikroiqlimga ta'siri** nson salomatligi uchun eng mo"tadil bo'igan ob-havo muhiti - harorat +20 +22°S va havoning nisbiy namligi 40-60% bo'igan holda, havo toza va azon bilan boyigan bo'lishidir. Shaharlardagi havo avtotransport va sanoat chiqindilarining atmosferaga tarqalishi, oqibatida ifloslanadi. Shaharlardagi sanoat va transporting kislorodni emirishi havoning me'yoriy tarkibini o'zgartirishi haroratning oshishiga olib keladi.
M4	**4-mavzu: Daraxtzorlarni havoning tarkibi va tozaligiga ta'siri** ma'lumki, daraxt va butalar havodagi karbonat angidridini oladi va havoni kislorod bilan boyitadi. 1 gektar yashil ekinzor maydoni bir soat mobaynida havodan 8 kg karbonat angidridni o'zlashtiradi. Xuddi shu hajmdagi karbonat angidrid gazini 200 ta odam o'pkasi nafas olish jarayonida ajratib chiqaradi.
M5	**5- mavzu: Daraxtzorlarning shovqinga qarshi kurashdagi ahamiyati** - shaharlarda sanoat korxonalari va trasport vositalari faoliyati natijasida vujudga keladigan shovqin aholi salomatligiga katta zarar etkazadi. Shaharlar shovqini kommunal-kundalik va ishlab chiqarish vositalaridan, shuningdek transportlar harakatlanishidan kelib chiqadi. Yil sayin shovqinlar ta'siri kuchayib bormoqda. Baland va uzoq davomli shovqiniar inson asab tizimiga ta'sir ko'rsatib, uni asabiy va injiq qilib qo'yadi. Shovqinlar ta'sirida odamning nafas olishi va yurak urishi jadallashadi, qon bosimi oshadi.
M6	**6- mavzu: Daraxtlarning fitonsidlik xususiyatlari** - daraxt va butalarning fitonsidlik xususiyatlarini hisobga olmasdan ularning sog'lomlashtirish funksiyasini to'la tasavvur etib bo'lmaydi. O'simliklar o'zidan organik birikmalar chiqaradi, ular zararli mikroorganizmlarni yo'qotib, atrof-muhitga va inson organizmiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shahar havosi tarkibida ochiq daladagiga nisbatan ko'p miqdorda kasallik tarqatuvchi mikroblar mavjud. Hiyobon va istirohat bog'larida ko'chalardagiga nisbatan bakteriyalar miqdori kam bo'ladi.
M7	**7-mavzu. Kompozitsiya haqida tushuncha. Daraxtzorlarning arxItektura rejalashtirishdagi ahamiyati.** Har bir obodonlashtirilgan, ko'kalamzorlashtirilgan hudud o'zining kompozisiya markaziga ega bo'lishi kerak. Kompozisiya markazi bo'lib favvora yoki gulzori bo'igan maydoncha, yoki suv havzasi, favvoralar va gulzor bilan qoplangan asosiy hiyobon xizmat qilishi mumkin.
M8	**8-mavzu. Daraxt va butalarning kompozisityasi** - daraxt va butalarning kompozision shakllari quyidagilarni o'z ichiga oladi: soliterlar (gazonda ekilgan yakka daraxt); o'simliklar guruxlari; o'rmon massivlari va kichik o'rmonlar; qatorlab ekilgan daraxtzorlar; hiyobonlar; yashil to'siqlar; yashil devorlar; xar hil shakl berib ekilgan ekinzorlar; chirmashib o'suvchi o'simliklar.
M9	**9-mavzu. Gul va yashil o'tlar kompozisityasi** - gullar bilan bezashning asosiy turlarini: klumbalar, rabatkalar, bordyurlar, miksbordyurlar, guruhlangan ekinzorlar, gulli massivlar, yakka ekinzorlar, parterlar, toshli tepaliklar yoki alpinariylar tashkil etadi.
M10	**10-mavzu. Gazonlar kompozitsiyasi** - gazonlar - boshoqli, kam hollarda dukkakli o'tlardan tashkil topgan, qalin, tuproqni qoplovchi o't qatlami. Urug'dan ekish, chim bilan qoplash, tabiiy o'tlar qoplamini yaxshilash va boshqa usullar bilan barpo etiladi. Gazonlar maydoni 1 m^2 dan to bir necha gektargacha bo'lishi mumkin. Qo'llanilishiga qarab, manzarali, sport va maxsus gazonlarga ajratiladi. Barcha sanalgan gazonlar guruhi bir yo'la SSnitariya-gigiena vazifasini hat bajaradi.
M11	**11-mavzu. Ko'kalamzorlashririshning asosiy kompazitsion tamoyillari. Rejalashtirish uslublari** - Istirohat bog'lari va boshqa yashil ob'ektlar qurilishida rejalashtirishning uchta turi qo'llaniladi: muntazam uslub, peyzaj uslubi va aralash uslublar. Muntazam rejalashtirish keng to'g'ri yo'llar, hududning geometrik shakllarga bo'linishi, ekinzorlarning simmetrik tarzda joylashtirilishi, hovuzlar, gulzorlar va maydonchalarning to'g'ri geometrik shaklga ega bo'lishi; hiyobon va qator ekinzorlardan; shakl berilgan daraxt va butalardan foydalanish bilan tavsiflanadi.
M12	**12-mavzu. Yashil daraxtzorlarning tasnifi va ko'kalamzorlashtirishning shakli**

	- maqsadli yo'nalishiga, jovlashtirilishiga, hajmiga, xizmat ko'rsatish ko'lamiga ko'ra yashil ekinzorlar xilma xildir. Ko'kalamzorlashtiriladigan hududdagi ekinzorlami taxlil qilib chiqish ishlari odatda, loyixa bo'yicha bajariladigan boshqa kuzatuv ishlari (er tuzish, tuproqni tekshirish va hokazo) bilan bir vaqtda o'tkaziladi.
M1	**IV-semestr (bahorgi)** **1. Daraxtzorlarni joylashtirishni loyihalashtirish.** Daraxtzorlami joylashtirish tartiboti avvalambor ulaming toifasiga qarab, shuningdek, aholi yashash joyining rejalashtirish va qurilish tizimiga muvofiq holda belgilanadi. Umumfoydalaniladigan daraxtzorlami joylashtirishda quyidagi talablarga rioya qilmoq zarur.
M2	**2-mavzu. Daraxtzorlarni me'yorlash ishlari.** Shaharsozlik loyihalashtirish ma'lumotnomasida belgilab qo'yilishicha cheklangan tartibda foydalaniladigan va shahar yo'nalishidagi ekinzorlar maydoni me'yorlashtirilmaydi, balki mavjud rejalashtirish va boshqa sharoitlar bilan belgilanadi. Ishchi kuchi talabini, ko'chat yoki urug'ga bo'lgan talabni hisoblash.
M3	**3-mavzu. Istirohat bog'lari barpo etishning kelajakdagi istiqbollari.** Bunday joylarda ommaviy, ma'rifiy, madaniy ishlar, shuningdek, ilmiy-ommabop, badantarbiya va sport ishlarini rivojlantirishga katta e'tibor qaratiladi. Xorijiy davlatlar miqyosida bu boradagi ishlami ko'rib chiqish, o'rganish va respublika miqyosida tadbiq ishlarini ko'rib chiqish.
M4	**4-mavzu: O'rmon parki barpo etishni zamonaviy texnologiyalari va ularni samaradorligi.** Har bir mintaqaning tuproq iqlimidan kelib chiqib mos texnologiyalar asosida meliorativ tadbirlarni qo'llash va kelgusi yillardagi qilinadigan ishlar bilan taqqoslash. Zamonaviy texnologiyalarni avvalgilaridan afzalliklari va kamchiliklari, ularni tuproq iqlim sharoitga mosligi.
M5	**5-mavzu: Ko'cha va sayilgohlarni ko'kalamzorlashtirish.** Ko'chalarda ekilgan daraxtlar, butalar va gullar aholini quyoshning jazirama issig'idan, shamollardan, chang-to'zondan va shovqinlardan himoya qiladi. Sayilgohlar shaharlaming katta maydonlarida, piyodalar qatnovi ko'p bo'lgan ko'chalar chorrahalarida, alohida jamoat binolari oldida, shuningdek, uylar orasidagi ko'chalarda joylashtiriladi.
M6	**6- mavzu: Hiyobonlar (bulvarlar) daraxtzorlarni tanlash hududlar bo'yicha o'rganish.** Mavjud agrotexnika shart-sharoitlarini hisobga olgan holda o'rmon ixota daraxtzorlari barpo etish va ularni tuproq iqlim sharoitiga mosligi. Daraxlar o'tqaziladigan tuproq qatlamining melirativ holati va unumdorligini hisobga olish. Hiyobonning arxitektura-qurilish yechimi uning shahar rejasidagi joylashish o'mi, xajmi va iqlim sharoitlariga mos holda bajariladi.
M7	**7-mavzu: Maktablarni ko'kalamzorlashtirish mikroiqlim hosil qilishdagi o'rni.** Yerning relefi va unga unga bog'liq ravishda tuproq iqlim sharoitini o'zgarishi. Har bir daraxning mikroiqlim hosil qilishdagi o'rnini o'rganish. Maktablar hududidagi yashil ekinzorlar vazifalari quyidagicha: 1) issiq, chang va shovqindan himoyalash; 2) tanaffus paytida dam olish uchun qulay sharoitlar yaratish hamda biologiya va badantarbiya (fizkultura) mashg'ulotlarini ochiq havoda o'tkazishda moslashtirish.

M8	**8-mavzu: Bolalar bog'chasi hududini ko'kalamzorlashtirish** . Bolalar bog'chasi hududida quyidagi maydoncha va inshootlarni joylashtirish tavsiya etiladi: o'yinlar uchun umumiy maydoncha, bolalar uchun aloxida maydonchalar, ayvoncha, uxlash va soyada o'ynash uchun chorbog1, hayvonlar burchagi, sabzavot bog'chasi, meva -rezavor bog', basseyn, ho'jalik xovlisi bo 'lishi lozim.
M9	**9- mavzu: Kasalxona va sanoat korxonalari hududlarini ko'kalamzorlashrirish ishlarini yo'lga qo'yish usullari.** Kasalxona hududidagi ko'kalamzorlashtirishning maqsadi quyida-gicha: ochiq havoda muolajalarni o'tkazish, bemorlaming sayr etish va dam olishi uchun mo'tadil mikroiqlim hamda sanitargigienik sharoitlarni yaratish; davolash binolarida yorug'lik rejimini yaxshilash hamda ularni chang va shamoldan muhofazalash; yashil ekinzorlar yordamida hududning turli funksional bo'limlarini chegaraviy ajratish; hududni manzarali ko'rinishini yaxshilash. Sanoat korxonalari va aholi yashash joylari o'rtasida yashil xudud barpo etiladi. Ushbu yashil hudud aholi yashash joylarini sanoat korxonalarining zararli ta'siridan himoya qilishi zarur.
M10	**10-mavzu. Qishloq aholisi yashash joylari va shahar atroflarini ko'kalamzorlashtirish.** Atrof muhit havosini yaxshilash maqsadida o'zidan kislorod ishlab chiqaradigan turli daraxtlarni ekish. Ularning ekologik ahamiyatini o'rganish. Davlat ahamiyatiga molik manzarali daraxtlarni tanlash. Ushbu ko'kalamzorlashtirish toifasi shahami shamollardan, qum va qor ko'chkilaridan himoya qilish, yanada yaxshi iqlim sharoitlarini yaratish,
M11	**11-mavzu. Ko'kalamzorlashtirish agrotexnikasi va parvarishlash. usullari.** Muhandislik tayyorgarchilik ishlari quyidagilami o'z ichiga oladi: vertikal reja tuzish va yuza oqimni tashkil etish, hududni qisman yoki butunlay quritib olish, er osti kommunikasiyalarini o'tkazish va hududni suv toshishdan himoyalash, suv havzalarining nishabliklari va qirg'oqlarini mahkamlash. Transport yo'llari atrofidagi himoya daraxtzorlar, ularning joylashishi.
M12	**12-mavzu. Joylarni agrotexnikaishlari uchun tayyorlash daraxt va butalarni ekish.** Ko'kalamzorlashtirish obyektlari hududini agrotexnik jihatdan tayyorlash mavjud qimmatli ekinzorlar (daraxtlar, butalar, o'tsimon o'simliklar) ni saqlab qolish; ulami parvarishlash, tuproqni tayyorlashga oid tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirishdan iborat. Ushbu tadbirlar tayyorgarlik ishlarining umumiy majmuasiga kiradi hamda muhandislik ishlari bilan mutanosib ravishda bajarilishi lozim . Unumdorligi past joylarni unumdorligini oshirish ishlarini olib boorish.

III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar: Amaliy (A) mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi.

A1	Ko'kalamzorlashtirishning asosiy kompozitsion tamoyillari
A2	Ko'kalamzorlashtirish istiqbolini aniqlash
A3	Yashil daraxtzorlarning tasnifi va ko'kalamzorlashtirishning shakli
A4	Daraxtzorlarni joylashtirishni loyihalashtirish
A5	Daraxtzorlarni joylashtirish
A6	Daraxtzorlarni me'yorlash

A7	Aholi yashash joylarini alohida turlari bo'yicha ko'kalamzorlashtirish
A8	Ko'chalarni ko'kalamzorlashtirish
A9	Dahalarni ko'kalamzorlashtirish
A10	Maktabiarni ko'kalamzorlashtirish
A11	Ko'kalamzorlashtirish agrotexnikasi va parvarishlash.
A12	Joylarni ko'kalamzorlashtirish uchun tayyorlash
A13	Joylarni agrotexnika ishlari uchun tayyorlash
A14	Daraxt va butalarni ekish.
A15	Daraxt va butalarni parvarishlash.
A16	Katta yoshdagi daraxtlarni ko'chirib o'tqazish.
A17	Gulzorlarni tashkil qilish ularni ekish usullari.
A18	Ko'p yillik gullarni parvarishlash.
A19	Yaproqbargli daraxtlar va ualardan ko'kalamzorlashtirishda foydalanish.
A20	Ninabargli daraxt turlari
A21	Oddiy archa - juniperus communis morfologiyasi va biologiyasi.
A22	Doim yashil sarvi - cupressus sempervirens daraxtining tuzilishi.
A23	Oddiy qarag'ay - pinus silvestris tuzilishi.
A24	Mevali butalarlamint turlari.
A25	Qora mevali aroniya - aronia melanocarpa
A26	Qoraqand zirk - berberis oblongani parvarishlash.
A27	Siren – syringening tuzilishi.
A28	Respublikaning barcha viloyatlarida manzarali o'simlik sifatida ishlatilishi mumkin o'simliklar turlari.
A29	Xorijiy davlatlardan keltirilgan manzarali o'simliklar.
A30	Daraxtlar, butalar, gullar va ranglarining uyg'unlashuvida yaratilgan kompazitsiyalar.
III.Mashg'ulotlar shakli: laboratoriya (L) rejalashtirilmagan	

IV. **Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular

"Aholi yashash joylarini ko'kalamzorlashtirish" fani bo'yicha mustaqil ta'lim va ishlarning kalendar tematik rejasi

№	**Mustaqil ta'lim mavzulari**
1.	Ko'kalamzorlashtirish tarixi
2.	Shahar qurilishida ko'kalamzor maydonlarning o'rni va ahamiyati
3.	Ko'kalamzorlashtirishga ta'sir etuvchi omil - tabiiy sharoitlar
4.	Daraxtzorlarning mikroiqlimga ta'siri
5.	Daraxtzorlarni havoning tarkibi va tozaligiga ta'siri
6.	Daraxtzorlarning shovqinga qarshi kurashdagi ahamiyati
7.	Daraxtlarning fitonsidlik xususiyatlari
8.	Kompozisiya haqida tushuncha. Daraxtzorlarning arxitektura rejalashtirishdagi ahamiyati
9.	Ko'kalamzorlashtirishning asosiy kompozitsion tamoyillari
10.	Rejalashtirish uslublari
11.	Rangiar haqida
12.	Ko'kalamzorlashtirish istiqbolini aniqlash
13.	Yashil daraxtzorlarning tasnifi va ko'kalamzorlashtirishning shakli
14.	Daraxtzorlarni joylashtirishni loyihalashtirish
15.	Daraxtzorlarni joylashtirish
16.	Ixotazorlar barpo etish tarixi.
17.	O'rmon ixotalarining qishloq xo'jaligida samaradorligi.
18.	Sug'orilmaydigan hududlarda o'rmon ixotalarini barpo etishda ishlatiladigan daraxt turlari.
19.	Dala o'rmon ixotalarining balandligiga bog'liq holdagi hosildorlik.
20.	Manzarali va ixota sifatida foydalaniladigan asosiy daraxt va buta turlari.
21.	Cho'llashgan mintaqalarda o'simliklarni parvarishlash.
22.	O'stirilgan daraxtlarning xatosini to'ldirish va ularga ishlov berish.
23.	Qo'llanilishiga qarab, manzarali, sport va maxsus gazonlarni joylashtirish
24.	Qumlarni mustahkamlash va o'zlashtirish ishlari tarixi va uning kelgusidagi ish rejalari.
25.	Yashil devorlar; xar hil shakl berib ekilgan ekinzorlar
26.	Qumlarni fizik geografik mintaqalardagi ahamiyati.
27.	Gullar bilan bezashning asosiy turlari, yo'nalishlari.
28.	Tabiiy o'tlar qoplamini yaxshilash va boshqa usullar va uning ahamiyati.
29.	Qumlarning namlik xususiyatlari, qumlarni gidrologik rejimi va uni aniqlash omillari.
30.	Ko'chma qumlar keltirgan zararlar, ko'chma qumlarga qarshi ogohlantiruvchi tadbirlar, mexanik va tirik himoyalar.
31.	Qumlarni tirik himoya fitomelioratsiya usuli bilan mustahkamlash.
32.	Mexanik himoyalar o'rtalariga o'tlar sepish, qumlarni daraxt va butalar yordamida mustahkamlash.
33.	Boshqa usullardagi ekishlar.
34.	Qumlarni unumdorligini oshirish yo'llari.
35.	Qumli cho'llarda o'rmonzorlar barpo etish, ularni turlari, sxemalari, ularning tipologiyasi.
36.	Ko'kalamzorlashtirishda tuproq tarkibining ahamiyati.
37.	Eroziyani keltirib chiqaruvchi asosiy omillar ularni bartaraf etish ususllari.
38.	Qiyaliklar nishabligining tuproq yuvilishiga ta'siri, ularni oldini olishda o'simliklarning ahamiyati.
39.	O'rmonzorlarning tuproqni himoya qilishdagi ahamiyati.
40.	Tuproq nurashida ko'p yillik o'tlarning ahamiyati, eroziyaga qiyalik ekspozitsiyasining ta'siri, eroziyaning zarari.
41.	Manzarali gullarni ekishda olib boriladigan tadbirlar.
42.	Jarliklar va jar hosil bo'luvchi davrlar, jarliklarning bo'limlari.
43.	Tuproqni suv ta'sirida emirilishdan asrashning tashkiliy xo'jalik tadbirlari, nurashga qarshi loyihalashtirish bosqichlari.
44.	Tog' o'rmon melioratsiya ishlarini olib borishda daraxt va butalarning ahamiyati
45.	O'rta Osiyoning tog'li xududlarida o'rmon melioratsiya ishlarining tashkil etilishi.
46.	Daraxtzorlarni me'yorlash usullari.
47.	Aholi yashash joylarini alohida turlari bo'yicha ko'kalamzorlashtirish
48.	Istirohat bog'lari va ularni yangicha uslubda barpo etish
49.	O'rmon parki loyihalarini joylashtirish.
50.	Ko'chalarni ko'kalamzorlashtirish
51.	Sayilgoh (skver) ko' kalamzorlashtirish
52.	Hiyobonlar (bulvarlar)ni ko'kalamzorlashtirishda olib boriladigan tadbirlar.
53.	Dahalarni ko'kalamzorlashtirish
54.	Maktabiarni ko'kalamzorlashtirish
55.	Bolalar bog'chasi hududini ko'kalamzorlashtirish
56.	Kasalxonalarni ko'kalamzorlashtirish
57.	Sanoat korxonalarini ko'kalamzorlashtirish
58.	Qishloq aholi yashash joylarini ko'kalamzorlashtirish
59.	Shahar atroflarini ko'kalamzorlashtirish
60.	Yo'llarni ko'kalamzorlashtirish

61.	Vertikal ko'kalamzorlashtirish
62.	Ko'kalamzorlashtirish agrotexnikasi va parvarishlash.
63.	Joylarni ko'kalamzorlashtirish uchun tayyorlash
64.	Gulzorlar va maydonchalarning to'g'ri geometrik shakl berish usullari
65.	Istirohat bog'laridagi kompozitsiyalarni tayyorlashda chirmashib o'suvchi o'simliklarni o'rni.
66.	Favvoralar va ularning turlari bilan tanishish hamda ulardan kompazitsiyalar yaratish.

"Aholi yashash joylarini ko'kalamzorlashtirish" fani bo'yicha mustaqil ta'lim mavzulari uning mazmunini yoritish maqsadida tanlangan va talabada shu haqida bilim va ko'nikmalarni shakllantirish nazarda tutilgan. Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan mavzularni normativ-huquqiy hujjatlar va o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish, referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish, ilmiy maqola, tezislar tayyorlash, amaliyotdagi mavjud muammolarni yechimini topish, fanning dolzarb muammolarini qamrab oluvchi loyihalar tayyorlash, o'rganilayotgan mavzu bo'yicha asosiy ilmiy adabiyotlarga annotasiya yozish kabi ko'rinishdagi ishlarni bajarish tavsiya etiladi.Keltirilgan mavzularning har biri to'g'risida talabalar qay tarzda o'zlashtirish, bilim va ko'nikmasiga ega bo'lish mexanizmi fanning sillabusida ochib beriladi.Shu mazmunda MT da nazarda tutilgan mavzular haqida talabalar ish olib borishadi. Barcha keltirilgan mavzularni har biri to'g'risida talabalar qay tarzda o'zlashtirish, bilim ko'nikmasiga ega bo'lish mexanizmi fanning sillabusida ochib beriladi.

3.	**V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)** **V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)** **"Aholi yashash joylarini ko'kalamzorlashtirish"** fani bo'yicha bakalavr fanni o'rganish natijasida. O'zbekistonda aholi yashash joylarini ko'kalamzorlash-tirish, daraxt. Buta va manzarali o'simliklarni alohida obyektlar uchun tanlash uslublari keitirilgan. Bundan tashqari, ko'kalamzorlashtirish tarixi, daraxtzorlarning mikroiqlimga ta'siri, rejalashtirish turlari, har xil ranglar kompozisiyasidan foydalanish, daraxtlarni me'yorlashtirish haqida ma'lumotlar keitirilgan. Har xil obyektlar: istirohat bog'lari, o'nnon parklar, ko'cha, kasalxona, maktab. bolalar bog'chasi, yo'llar, sanoat korxonalari xududini ko'kalamzorlashtirish bilan bog'liq kompleks masalalar yoritilgan. Shu bilan birga ko'kalamzorlashtirishda ishlatiladigan daraxt va buta turlariga ta'rif berilgan. Xududni texnologik tayyorlash, ekilgan ko'chatlarni parvarishlash agrotexnik ishlarini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.
4.	**VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:** • Ma'ruzalar; • Interfaol keys-stadilar; • Seminarlar (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar); • Guruhlarda ishlash; • Taqdimotlarni qilish; • Individual loyihalar; • Jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar; • Ko'chma dars mashg'ulotlari • Jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar
5.	**VII. Kreditni olish uchun talablar:** Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.

ASOSIY ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining «O'rmon to'g'risida» gi konuni. T. 1999
«O'rmon to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. Oliy Majlisning XIV sessiyasi materiallari. Toshkent, 1999.
2. A.Qayumov «Aholi yashash joylarini ko'kalamzorlashtirish» T 2013
3. M.M.Qalandarov «Manzaraki bog'dorchilik» T 2014

QO'SHIMCHA ADABIYOTLAR:

4. Qayimov A., Xolmurodov Ch. Manzarali dendrologiya. Uslubiy qo'llanma. Toshkent, 2005.
5. Qayimov A. Landshaft qurilishi. O'quv qo'llanma. Toshkent, ToshDAU nashriyot bo'limi, 2005.
6. Qayimov A. Dendrologiya. O'quv qo'llanma. T.: «Ilm ziyo», 2007. 20c
7. www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi hukumat portal
8. www.lex.nz - O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi
9. www.zivonet.uz
10. http://bse. sci-lib.com
11. www.msvx.uz
12. http:nauka.relis.ru
13. www. ru. wikioedia, com

5. www.botanichka.ru
6. http://davesgarden.com
7. www.agropark.ru
8. www.arkive.org
9. http://www.ysadba.org.

7.	Fan dasturi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Kengashining 2024yil "24" avgustdagi 1-son bayonnomasi bilan ma'qullangan.
8.	**Fan/modul uchun mas'ullar**: Raxmonova Xursheda Qurbonboyevna – Sharof Rashidov nomidagi SamDU, «Tuproqshunoslik va agrotexnologiyalar» kafedrasi assistenti
9.	**Taqrizchilar:** I.Bobobekov-qishloq xo'jaligi fanlari nomzodi, dotsent. N.Umarov– Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti, bino va inshootlar kadastri kafedrasi katta o'qituvchisi, t.f.f.d

Universitetning 2024-yil 16- avgustdagi 301-ij buyrug'i asosida
Fan dasturlari va mustaqil ta'lim topshiriqlarini ishlab chiqishga ma'sul ishchi guruhi:

Rais - **Sh.T.Xoliqulov.**
Kafedra mudiri: **Sh.T.Xoliqulov**
Institut o'quv uslubiy kengash raisi: **Sh.Mamasov**
Institut direktori: **T.F.Rajabov**
Sh. Rashidov nomidagi SamDU O'quv ishlari bo'yicha 1-prorektor: **A. S. Soleyev**

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
Agrobiotexnologiyalar va oziq-ovqat xavfsizligi instituti
60820100 – O'rmonchilik va aholi yashash joylarini ko'kalamzorlashtirish ta'lim yo'nalishi talabalari uchun "Aholi yashash joylarini ko'kalamzorlashtirish" fanidan tayyorlangan fan dasturiga

TASHQI TAQRIZ

60820100 – O'rmonchilik va aholi yashash joylarini ko'kalamzorlashtirish ta'lim yo'nalishi talabalari uchun "Aholi yashash joylarini ko'kalamzorlashtirish" fani 3-semestrda rejalashtirilgan bo'lib, unda ma'ruza amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari mavzulari tasdiqlangan fan dasturi asosida, mavzular ketma-ketligi biri-birini to'ldirib, fanning barcha bo'limlarini qamrab olgan. Mustaqil ta'lim mavzulariga alohida e'tibor berilgan. Unda talabalar mustaqil ta'lim mavzularni bajarishlarida fanning bo'limlaridagi mavzular bo'yicha topshiriqlarni bajarishi orqali bilim va ko'nikmalarni shakllantirishiga alohida etibor qaratilgan. Sillabusni tuzishda muallif fanning maqsadi, vazifasi, fanni o'zlashtirish uchun zarur boshlang'ich bilimlar, ta'lim natijalariga e'tibor qaratgan. Shuningdek fanni baholashda kredit mezoni va tartibi, darsdagi faolligi, mustaqil ta'lim topshiriqlari, bajarish bosqichlari ularga ajratilgan ballari keltirilgan.

Xulosa qilib aytganda 60820100 – O'rmonchilik va aholi yashash joylarini ko'kalamzorlashtirish ta'lim yo'nalishi uchun "Aholi yashash joylarini ko'kalamzorlashtirish" fanidan tuzilgan ushbu fan dasturi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan qo'yilgan talablarga to'liq javob beradi va uni foydalanishlari uchun tavsiya etaman.

Samarqand davlat arxitektura qurilish universiteti "Geodezika muhandisligi" kafedrasi mudiri, t.f.n.d.,

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
Agrobiotexnologiyalar va oziq-ovqat xavfsizligi instituti
60820100-O'rmonchilik va aholi yashash joylarini ko'kalamzorlashtirish ta'lim yo'nalishi talabalari uchun "Aholi yashash joylarini ko'kalamzorlashtirish" fanidan tayyorlangan fan dasturiga
ICHKI TAQRIZ

60820100-O'rmonchilik va aholi yashash joylarini ko'kalamzorlashtirish ta'lim yo'nalishi talabalari uchun "Aholi yashash joylarini ko'kalamzorlashtirish" fani 3-semestrda rejalashtirilgan bo'lib, unda ma'ruza amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari mavzulari tasdiqlangan fan dasturi asosida, mavzular ketma-ketligi biri-birini to'ldirib, fanning barcha bo'limlarini qamrab olgan. Mustaqil ta'lim mavzulariga alohida e'tibor berilgan. Unda talabalar mustaqil ta'lim mavzularni bajarishlarida fanning bo'limlaridagi mavzular bo'yicha topshiriqlarni bajarishi orqali bilim va ko'nikmalarni shakllantirishiga alohida etibor qaratilgan. Sillabusni tuzishda muallif fanning maqsadi, vazifasi, fanni o'zlashtirish uchun zarur boshlang'ich bilimlar, ta'lim natijalariga e'tibor qaratgan. Shuningdek fanni baholashda kredit mezoni va tartibi, darsdagi faolligi, mustaqil ta'lim topshiriqlari, bajarish bosqichlari ularga ajratilgan ballari keltirilgan.

Xulosa qilib aytganda 60820100-O'rmonchilik va aholi yashash joylarini ko'kalamzorlashtirish ta'lim yo'nalishi uchun "Aholi yashash joylarini ko'kalamzorlashtirish" fanidan tuzilgan ushbu fan dasturi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan qo'yilgan talablarga to'liq javob beradi va uni foydalanishlari uchun tavsiya etaman.

Tuproqshunoslik va agrobiotexnologiyalar kafedrasi, dotsenti: **I.Bobobekov**